

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№9

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
407 sahifa, sentyabr, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish	12
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	19
Usmonov Abbos Valijon o'g'li	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises	23
Sheraliev Axror Sodiqovich	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish	30
Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlar va huquqiy asoslari	37
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi	42
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari	46
Kurbonova Raxima Jamshedovna	
Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakalarining milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati	49
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar	54
Marufhanov Davron Xasanovich	
Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка	58
Юсуфов Асфандиёр Элдор угли	
Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari	63
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiyasi	67
Kurbanov Jaloladdin Yuldashbayevich	
"Intellectual mulk", "Intellectual kapital", "Nomoddiy aktiv" tushunchalari o'rtasidagi munosabat hamda ulardagi o'zaro bog'liqlik	73
N.D.Maxmudova	
Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlar rivojlanishi: iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy barqarorlik omili	77
Iskandarov Kudrat Shuxratovich	
Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	83
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yashirin iqtisodiyotni fiskal vositalar bilan tartibga solish strategiyasi	87
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi muammolar	91
Qosimova Lola Sultanovna	
Mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda yashil texnologiyalarni tadbiq etish usullari va yo'llari	96
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar	100
Rajabov Alibek Xushnadbekovich	



Ways to enhance financial transparency in utility service organizations through the digitalization of internal audit mechanisms.....	106
Primova Shakhnoza Komiljonovna	
Temir oksidli pigmentlarning ishlab chiqarish manbalari va jahon bozorida rivojlanish tendensiyalari	110
Askarova Nilufar Musurmanovna, Axmedova Nigora Erkin qizi	
Potential GDP Estimation and Output Gaps in Emerging Economies: A Comparative Review	120
Mukhammedova Azizakhon Ikromjon kizi	
Tijorat banklari likvidligiga indikativ foizlarning ta'sirini baholash.....	124
Tursunpo'latov Sohibnazar Kasimjon o'g'li	
Respublikamizda yetishtirilayotgan jun xomashyosining miqdori va texnologik xususiyatlari tahlili	131
Ismoyilov I.B., Qayumov J.A., Ismoyilov F.B., Qo'ldoshev E.I.	
Mahalla instituti asosida kambag'allikni qisqartirishda targetlash mexanizmlarining samaradorligi	137
Baratov J.N.	
Tijorat banklarida aktivlar boshqaruvini tashkil etish mexanizmlari	144
To'ychiyev Otabek Shamshiyevich	
Оптимизация жилищной инфраструктуры с учетом инсоляции и урбанизации как фактор региональной экономики.....	150
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Harbiy ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni tashkil etishda intellektual o'qitish tizimlarining roli.....	154
Maxamadov Rustam Xabibullayevich, Djamatov Mustafa Xatamovich	
Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	160
Xoshimov Og'abek Nizomjon o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarida innovatsiyalarni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari	169
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Jismoniy shaxslardan undiriladigan "daromad" solig'ining iqtisodiy tahlili	173
Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi	
Hududlarda inson salohiyatini takomillashtirish yo'llari.....	180
Tojiyeva Muhayyo Valiyevna	
Banklar reytingini prognoz qilishning ekonometrik tahlili	188
Karabaev Nodir Abduhamidovich	
Raqamli iqtisodiyot rivojida yangi bank xizmat turlarini rivojlantirish istiqbollari	201
Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyevena	
O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik va o'rta muddatli soliq-budjet siyosatining ahamiyati.....	207
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	
Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash muammolari va ularni raqamli texnologiyalar orqali bartaraf etish yo'llari.....	211
Mirpulatova Luiza Mansurovna	
O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlarini tahlili	216
Xatamov Nurbek Ochidiyevich	
O'zbekiston turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning shakllari	222
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
Turizm va mehmonxona industriyasida xizmatlar sifatini oshirishda yashil texnologiyalarni joriy etish jarayonida innovatsiyalar va tadbirkorlik amaliyotining o'rganilishi	227
Kamolova Mohinur Iskandarovna	
Davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosati.....	239
Suyunov Otabek Shuxrat o'g'li	



Big data и искусственный интеллект как драйверы цифровой экономики	242
Бозорова Ирина Жуманазаровна	
Mahalliyalashtirish asosida mahsulotlar ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tahlili va rivojlantirish istiqbollari (Namangan viloyati misolida)	247
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
Temir yo'l transportida yo'llarni ta'mirlash korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish	254
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
Актуальные вопросы финансирования инвестиционных проектов	259
Шомуродов Равшан Турсункулович. Рашидова Дилфуза Ганиевна	
Milliy darajada iqtisodiy xavfsizlikning ekologik omillari	266
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li	
Zamonaviy texnologiyalar va raqamli yondashuvlarning individuallashtirilgan xizmatlarda tutgan o'rni	276
Raxmatov Aziz Tolipovich	
Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda monetar omillardan samarali foydalanish	280
Uskenbayeva Dilnoza Boxodir qizi	
Mahalliy moda brendlarini iste'molchilar kiyinish imijiga ta'sirini ekonometrik baholash	286
Tuxtayeva Oydinoy Normamatovna	
Moliyaviy innovatsiyalarni banklarga joriy etishning afzalliklari	290
Makhmudova Mukhlisa Kodirjon kizi	
Kichik biznesni innovatsion rivojlantirish strategiyasi	295
Muxitdinov Shuxrat Ziyaviddinovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida parrandachilikni rivojlantirishni modellashtirish usullari	299
Bobomuratov Imomkul Islamovich	
Mehnat resurslaridan foydalanishning xususiyatlari va tashkil etish mezonlari	306
Kobilova Zebo Bobokulovna	
Зелёное бюджетирование как инструмент повышения эффективности управления государственными финансами	311
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
Soliq ma'murchiligi va raqobat muhitiga oid ilmiy nazariy qarashlar	318
Donaboyev Jahongir Husan o'g'li	
Особенности создание полимерных композиционных материалов на основе вторичного сырья	324
Маджидов Абдинаби Аманович	
O'zbekistonning BMT "Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi"dagi o'rnini yaxshilash choralari	330
Umarova Durdona Abdumannabovna	
Ekologik auditning axborot bilan ta'minlanishi	335
Abdullayev Xurshidjon Nazrullo o'g'li	
Анализ механизмов управления и контроля финансовыми ресурсами на предприятиях с государственной долей, на примере АО "Узметкомбинат"	340
Ахмедов Дилшод Турсункулович	
O'zbekiston Respublikasida QQS ma'murchiligi amaliyoti tahlili	347
Eshkarayev Bobir Chariyevich	
Сравнительный анализ отечественных и зарубежных подходов к оценке финансовой устойчивости компаний	354
Утемуратова Магрифа Пердебаевна	
Uy - joy kommunal xo'jaligi sohasida innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini yanada takomillashtirish	359
Berdiyeva Dilfuza Axatovna, Matkomilov Mirjalol Mirkomil o'g'li	



Namangan viloyatida nodavlat maktablar salohiyati.....	363
Abdusattorov Sodiqjon Hakimjon o'g'li	
Kimyo sanoatida loyihalarni baholash va monitoring qilishning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri.....	369
Sabirov Oybek Shavkatbekovich	
Gaz va gazkondensatning harakatlanish qobiliyatini oshirish usullar tahlili	374
Abdirazakov Akmal Ibragimovich, Boymurodov Boynazar Muradillayevich	
O'zbekiston sharoitida Agile davlat boshqaruvining kelajak istiqbollari	379
Sayfiyev Jasur Ravshanovich	
Bank korporativ boshqaruv samaradorligi va uning moliyaviy ko'rsatkichlari	384
Temirov Abdulaziz Alimjanovich	
Tijorat banklarining moliyaviy risklari	390
Suxrob Narzullayevich Xolmatov	
Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni ekonometrik modellashtirish va tahlil qilish.....	395
Djabbarov Rahimjon Abdullayevich	
To'qimachilik sanoatini iqtisodiy jihatdan rivojlanishida asosiy ko'rsatkichlarini prognozlash algoritmi	400
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	

УДК 336.7



TO'QIMACHILIK SANOATINI IQTISODIY JIHATDAN RIVOJLANISHIDA ASOSIY KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH ALGORITMI

Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi

TTYSI "Buxgalteriya hisobi va marketing" kafedrası mudiri,
iqtisodiyot fanlari doktori DSc, dotsent
ORCID: 0000-0001-9366-5519

Annotatsiya: Ushbu maqolada to'qimachilik sanoatining iqtisodiy rivojlanishida asosiy ko'rsatkichlarni prognozlashga mo'ljallangan algoritmi ishlab chiqildi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish va ularning kelajakdagi tendensiyalarini aniqlash usullari o'rganildi. Taklif etilgan algoritmi sanoatning samarali rivojlanishini rejalashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlashda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: to'qimachilik sanoati, iqtisodiy rivojlanish, prognozlash, iqtisodiy ko'rsatkichlar.

Abstract: This article presents an algorithm designed to forecast the key indicators of economic development in the textile industry. During the research process, methods for analyzing economic indicators and identifying their future trends were examined. The proposed algorithm has practical significance for planning the effective development of the industry, ensuring the rational use of resources, and maintaining production stability.

Keywords: textile industry, economic development, forecasting, economic indicators.

Аннотация: В данной статье разработан алгоритм, предназначенный для прогнозирования ключевых показателей экономического развития текстильной промышленности. В ходе исследования были изучены методы анализа экономических показателей и выявления их будущих тенденций. Предложенный алгоритм имеет практическое значение для планирования эффективного развития отрасли, рационального использования ресурсов и обеспечения устойчивости производства.

Ключевые слова: текстильная промышленность, экономическое развитие, прогнозирование, экономические показатели.

KIRISH

O'zbekistonning to'qimachilik sanoati qadimdan rivojlangan tarmoq sifatida jahon mamlakatlari orasida o'ziga xos qulay resurs imkoniyatlari va shakllangan bozor muhiti bilan ajralib turadi. Bugungi kunda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqaruv tizimlari oldida iqtisodiyotni rivojlantirish masalasiga yangicha, zamonaviy yondashuvlardan foydalanish talabi qo'yilmoqda. Bunday yondashuv sifatida iqtisodiyotda keng ko'lamli rejalashtirish va rivojlantirish konsepsiyasining ilgari surilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakat sanoatining samarali rivojlanishi ko'p jihatdan to'qimachilik korxonalari faoliyati samaradorligiga bog'liq. To'qimachilik tarmog'ini keng ko'lamli rejalashtirish konsepsiyasida asosiy e'tibor funksional, ijtimoiy-iqtisodiy va resurs tejamkorligi tamoyillariga, resurslardan samarali foydalanish hamda chiqindilarni qayta ishlash bilan bog'liq yo'nalishlarni shakllantirishga qaratiladi.



So'nggi 3 yil ichida tarmoqqa 2 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiyalar jalb qilingan hamda 260 dan ortiq yirik to'qimachilik korxonalari ishga tushirilgan [1]. To'qimachilik sanoatining respublika YalMdagi ulushi 4,8 foizni tashkil etib, sanoat mahsulotlarining 25 foizi, ishlab chiqarish asosiy fondlarining 13 foizi ushbu tarmoqqa to'g'ri keladi. Eng asosiysi, sanoatda band xodimlarning 32 foizi aynan shu tarmoqda faoliyat yuritmoqda [2].

Mamlakatimizda bugungi kunda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish borasida keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son'li Farmoni qabul qilingan. Mazkur farmonning 3-bandida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashda muhim bo'lgan ustuvor vazifalar belgilab olingan bo'lib, ushbu vazifalar sohaning istiqbolli rivojlanishini ta'minlaydi [3]. Ushbu vazifalarning samarali ijrosi mamlakatimizda sanoat tarmog'i, xususan, to'qimachilik tarmog'i faoliyatini baholashni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsion salohiyatni aniqlashda olimlar tomonidan turli yondashuvlar ilgari surilgan. N.D. Guskova fikriga ko'ra, "investitsiya salohiyati makroiqtisodiy xususiyatlarni, hududning ishlab chiqarish omillari bilan to'yinganligini, aholining iste'mol talabini va boshqa parametrlarni hisobga oladi" [4]. L.S. Valinurova va O.B. Kazakovlar esa investitsiya salohiyatini "moddiy-texnik, moliyaviy va nomoddiy aktivlarni o'z ichiga olgan investitsiya resurslari to'plami (sanoat obyektlariga egalik qilish, foydali qazilmalarni qazib olish, ijtimoiy-iqtisodiy va bozor munosabatlari sohasida ma'lumot to'plash, to'plangan tajriba va boshqalar)" sifatida belgilaydi [5].

V.Y. Katasonovning fikricha, "har qanday darajadagi xo'jalik yurituvchi subyektning investitsiya salohiyati — bu subyektning oldingi iqtisodiy faoliyati natijasida to'plangan, joriy iqtisodiy faoliyatni buzmasdan investitsiya faoliyatini (kapital qo'yilmalar shaklida) ta'minlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan barcha o'z resurslarining (moliyaviy, moddiy, ilmiy-texnikaviy, kadrlar) maksimal yig'indisidir" [6]. F.S. Tumusov esa investitsiya salohiyatini "to'plangan kapitalning investitsiya bozorida potentsial investitsiya talabi shaklida taqdim etiladigan, kapitalni ko'paytirishning moddiy, moliyaviy va intellektual ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan real investitsiya talabiga aylanishi mumkin bo'lgan qismini tashkil etuvchi potentsial investitsiya resurslari to'plami" sifatida talqin etadi [7].

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar A. Vahabov, Sh. Xajibakiyev va N. Muminovlar esa investitsiyaning mazmun-mohiyatini quyidagicha izohlaydi: "Investitsiyalar — foyda olish yoki ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik obyektlariga va boshqa faoliyat turlariga qo'yiladigan pul mablag'lari, banklarning maqsadli omonatlari, aksiyalar, boshqa qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, kreditlar, har qanday boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlar, intellektual boyliklardir" [8].

To'qimachilik tarmog'ini rivojlantirishda investitsiya imkoniyatlari va ulardan foydalanishni yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Shu munosabat bilan, uning asosiy elementlari olimlar fikrlariga tayanilgan holda maqolaning asosiy qismida batafsil tahlil etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


To'qimachilik tarmog'ini iqtisodiy rivojlantirishda investitsion imkoniyatlardan foydalanish bo'yicha mavjud ilmiy tadqiqotlar o'rganildi. Shu jarayonda statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, iqtisodiy jihatdan baholash, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiya, ma'lumotlarni guruhlash hamda induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

To'qimachilik sanoatining asosiy ko'rsatkichlarini prognozlash jarayoni uning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini chuqur tahlil qilishga asoslanadi. Tadqiqotning ushbu bosqichi to'qimachilik korxonalarida resurslardan samarali foydalanish konsepsiyasini ishlab chiqish uchun uslubiy vositalarni axborot bazasiga moslashtirish tamoyillarini qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Trend chizig'ining mavjudligi yuqori darajadagi prognoz aniqligini ta'minlaydigan modelni yaratish imkonini beradi. Agar model yetarlicha aniqlik darajasiga ega bo'lsa, qo'shimcha tadqiqot o'tkazish zarurati qolmaydi.

To'qimachilik sanoati rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlarini prognozlash algoritmi 1-rasmda keltirilgan bo'lib, u tarmoqda iqtisodiy jarayonlarni barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda investitsiya salohiyatini yanada kuchaytirish uchun asosiy yo'nalishlarni belgilaydi. Shu orqali tahlil natijalari resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish hajmini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi (1-rasm).

1 <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>



1-rasm. To'qimachilik sanoati rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlarini prognozlash algoritmi²

Ko'rsatkichlar xususiyatiga qarab prognozlash usuli tanlanadi. Sifat va miqdoriy ko'rsatkichlar uchun prognozlashda trend ekstrapolyatsiya usulidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ekspert prognozlash usuli esa mutaxassislar guruhini shakllantirish va ularni tanlashni talab etadi; bunda ekspertlar soni va malaka darajasi tadqiqot maqsadidan kelib chiqib belgilanadi. Shu asosda ekspertlarni tekshirish uchun maxsus so'rovnomalar ishlab chiqiladi, u quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- ekspert fikrlarining lingvistik ko'lamini, ya'ni baholash gradatsiyasi darajasi va tafsiloti tadqiqotchining bashorat aniqligiga bo'lgan talabiga bog'liq;
- to'qimachilik korxonalarining faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari va ularni aniqlovchi savollar (anketa);
- yakuniy jadval, unda har bir ko'rsatkich uchun ekspert baholari jamlanadi.

So'rovnomalar natijalari asosida statistik ma'lumotlar qayta ishlanadi va yakuniy ekspert xulosasi o'rtacha qiymat yoki klaster reytinglar usullari orqali shakllantiriladi. Ekspertlar bahosiga nisbatan qo'shimcha tahlil o'tkazilib, fikrlarning o'zaro bog'liqligi hamda ishonchligi tekshiriladi. Natijada barcha ekspertlarning umumlashtirilgan fikrini ifodalovchi yakuniy ballar asosida grafik chizma tuziladi.

Ekstrapolyatsiya usuli o'rganilayotgan omillarning ta'sirini hisobga olish imkonini beradi. U to'g'ridan-to'g'ri ekstrapolyatsiya usullaridan farqli ravishda, prognoz obyektining dinamikasini vaqt o'tishi bilan aniqlovchi tuzatuvchi koeffitsiyentlardan foydalanadi. Empirik ma'lumotlarda kuzatilayotgan qonuniyatlarning o'zgarishini ifodalovchi egri chiziqli model aniqlansa, ekstrapolyatsiya usulini qo'llash ijobiy natija beradi. Bunday holda, trend asosida prognozlash kuzatilayotgan jarayonning rivojlanish yo'nalishlarini yanada aniqroq belgilash imkonini yaratadi.

Dastlabki dinamik qatorlarni tayyorlash odatda ixtisoslashtirilgan dasturiy ta'minot yordamida amalga oshiriladi, bu esa matematik prognozlash funksiyalari majmuasini shakllantirishga imkon beradi. Approksimatsiyalovchi funksiyalar turi boshlang'ich qatorlar va nazariy hisoblangan qiymatlarning vizual tahlili asosida mantiqan tanlanadi. Matematik model parametrlari eng kichik kvadratlar usuli, eksponentsial tekislash, ehtimoliy modelashtirish, adaptiv tekislash kabi metodlar orqali baholanadi. Modelning sifati uning keyingi tanlovi va prognoz qiymatlari aniqligini belgilaydi. Agar olingan natijalar ekspertlar va tadqiqotchilar baholariga zid bo'lmasa, ular yakuniy deb qabul qilinadi; aks holda prognoz mutaxassislarning qo'shimcha fikrlari bilan to'ldiriladi.

2 Olib borilgan tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan



To'qimachilik tarmog'ida tovar ishlab chiqarish jarayonida iqtisodiy risk darajasini baholash vositalari resurslardan foydalanishdagi iqtisodiy risk omillarini integral baholashning konseptual modeli orqali amalga oshiriladi. Iqtisodiy risk darajasi va dinamikasi uning barcha namoyon bo'lish sohalarini ifodalovchi omillar majmui bilan belgilanadi.

Risk omillari — bu subyekt faoliyatining holatini shakllantiruvchi va risk sabablarining yuzaga kelishiga imkon beruvchi shart-sharoitlardir. Ularni baholash uchun ishlab chiqilgan konseptual model ikki modulni o'z ichiga oladi, ularning har biri to'qimachilik korxonalarida resurslardan foydalanish jarayonida iqtisodiy risk omillarini tadqiq etishning muayyan bosqichini ifodalaydi:

- to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda iqtisodiy risk omillari tizimini shakllantirish;
- to'qimachilik korxonalarida iqtisodiy risk omillarining ta'sir darajasini sifat va miqdoriy jihatdan baholash;
- to'qimachilik korxonalarida iqtisodiy risk omillarini kompleks tahlil qilish.

Birinci bosqichda iqtisodiy risk omillari tizimi shakllantiriladi va ular makro, mezo hamda mikro darajadagi iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda empirik ma'lumotlar asosida baholanadi. Ikkinchi bosqichda iqtisodiy risk omillarining ahamiyati hamda ularning korxonalar faoliyatiga ta'siri aniqlanadi. Bu jarayonda ekspert baholash usuli qo'llanilib, har bir tasniflash guruhi omillari statistik tahlil natijalariga asoslanadi.

Keyingi bosqichda olingan ko'rsatkichlar muallif tomonidan ishlab chiqilgan kompleks baholash usuli asosida tahlil qilinadi. Ushbu metodologiya doirasida risk omillarining ta'sir darajasi bosqichma-bosqich sifat va miqdoriy omillar yo'nalishlarida aniqlanadi. Bunday yondashuv riskning iqtisodiy tabiatini, to'qimachilik korxonalarida resurslardan foydalanish darajasini hamda tarmoqdagi biznes istiqbollarini maksimal darajada hisobga olish imkonini beradi. Shu bilan birga, ekspert baholari global iqtisodiy tendensiyalar haqidagi ma'lumotlarga tayangan bo'lib, ular ko'pincha rasmiy hujjatlar shaklida aks ettirilmaydi, ammo amaliy qarorlar uchun muhim manba hisoblanadi.

Tahlil jarayonida miqdoriy omillar nisbiy qiymatlarga keltirilishi zarur bo'lib, bu turli o'lchovdagi mutlaq qiymatlar asosida farq qiluvchi obyektlarning taqqoslanuvchanligini ta'minlaydi. Iqtisodiy riskning tabiati hodisaning ehtimolliligi bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli (bashorat qilingan natijadan yo'qotishlar yoki chetga chiqish ehtimoli), nisbiy ko'rsatkichlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- obyekt rivojlanishining asosiy tendensiyasini tavsiflovchi, xavfni keltirib chiqaruvchi yoki kamaytiruvchi omillarning o'sish yoki pasayish ehtimolini baholash imkonini beruvchi o'rtacha o'sish sur'ati;
- ma'lum parametr bo'yicha o'rganilayotgan obyektning aholi tarkibidagi solishtirma og'irligi, ya'ni natijalarni shakllantirishdagi ulushi;
- obyektning individual foyda bilan ta'minlanganlik darajasini aks ettiruvchi nisbiy zichlik ko'rsatkichi.

Ko'rsatkichlarning ishlab chiqarish jarayonidagi iqtisodiy riskka ta'sir darajasini aniqlashda iqtisodiy holatning real rivojlanish darajasini ifodalovchi mutlaq qiymatlar, shuningdek, faoliyatdagi asosiy tendensiyalarni ifodalovchi nisbiy qiymatlar birgalikda hisobga olinadi. Bu holatda ma'lumotlarni normallashtirish va keyinchalik tartiblash eng maqbul yechim hisoblanadi.


Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib, to'qimachilik sanoati resurslaridan samarali foydalanish maqsadida asosiy risk omillari va iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini prognozlash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun to'qimachilik sanoatining tashqi va ichki muhit holatini uzluksiz prognozlash tavsiya etiladi. Prognozlash jarayoni yuqorida keltirilgan risk omillari hamda iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlariga asoslanadi.

Iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini prognozlash sifat va miqdoriy yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Sifat jihatdan prognozlashda ekspert baholash usuli qo'llanilib, bu jarayonga ilgari o'tkazilgan tadqiqotlarda ishtirok etgan mutaxassislar jalb etiladi. Ekspertlarni o'zgartirish tavsiya etilmaydi, chunki bu baholashlarda ichki qarama-qarshiliklar paydo bo'lishi mumkin.

Ekspert baholarini shakllantirish nuqtayi nazaridan, ularni risk omillarini baholash bosqichi bilan birlashtirish va ekspert so'rovnomalariga qo'shimcha savollar kiritish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, bir qator parametrlarning o'zaro bog'liqligi sababli, olingan ko'rsatkichlarning butun guruhi (masalan, tashqi moliyaviy omillar) uchun umumiy prognoz ishlab chiqish mumkin.

Miqdoriy ko'rsatkichlar esa ekstrapolyatsiya usullari yordamida prognoz qilinadi. Har bir ko'rsatkich uchun yetarli darajada uzoq dinamika qatori mavjud bo'lishi prognozning ishonchligi uchun asosiy shart hisoblanadi. Ma'lumotlarni prognozlash jarayoni standart va ixtisoslashtirilgan dasturiy ta'minot orqali avtomatlashtiriladi. Hisoblangan prognoz qiymatlari esa to'qimachilik sanoati samaradorligining prognoz darajalarini aniqlash uchun qo'llaniladi.

Natijada, ushbu yondashuv to'qimachilik tarmog'ida iqtisodiy xavflarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va soha barqarorligini oshirishga xizmat qiladi (2-rasm).



2-rasm. To'qimachilik sanoatining rivojlanish ko'rsatkichlarining prognozlash ketma-ketligi

To'qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy rivojlanish holati tarmoqdagi mavjud resurslardan samarali foydalanish darajasiga bevosita bog'liqdir. Shu sababli, resurslarning mavjudligi to'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish jarayonining boshlang'ich nuqtasi sifatida qaraladi. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmining o'zaro bog'liqligi, ularning tannarxini pasaytirish va foydani ko'paytirish imkoniyatlari korxonani zarur sifat va assortimentdagi resurslar bilan o'z vaqtida ta'minlash, xomashyo va materiallar zaxirasining yetarliligi hamda xarajatlarning me'yorlarga muvofiqligi asosida baholanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

To'qimachilik sanoatini iqtisodiy rivojlantirishda resurslardan samarali foydalanish konsepsiyasini shakllantirish uchun ehtimoliy-adaptiv yondashuvni qo'llash muhimdir. Ushbu yondashuv sanoat samaradorligini baholash, iqtisodiy risklarni aniqlash hamda kam chiqindili texnologiyalarni joriy etishni o'z ichiga oladi. To'qimachilik sanoati korxonalarining resurslardan foydalanish tendensiyalari va samaradorligini kompleks tahlil qilish, prognozlash, shuningdek, ichki va tashqi muhit ko'rsatkichlarini chuqur o'rganish sohaning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Samarali resurs boshqaruvi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulot sifatini oshirish va eksport salohiyatini kuchaytirish orqali sanoatning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlaydi. Shunday qilib, resurslardan oqilona foydalanish konsepsiyasini ishlab chiqish va uning metodologiyasini takomillashtirish to'qimachilik sanoatining raqobatbardoshligini oshirish bilan bir qatorda mamlakat iqtisodiyotining o'sishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi ma'lumotlari. <https://uzts.uz/en/to-investors/investment-potential>
2. O'zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari www.stat.uz
3. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/20222026_yillarga_mujallangan_yangi_uzbekistonning_taraqqiet_strategiyasi_tasdiqlandi
4. Guskova N. D., Krakovskaya I. N., Slushkina Y. Y. Investitsiyalarni boshqarish. M.: Knorus, 2016 yil. 438 b.
5. Valinurova L. C., Kazakova O. B. Investitsiya. M.: Volters Kluver, 2010 yil. 448 b.
6. Katasonov V. Y. Iqtisodiyotning investitsiya salohiyati: shakllantirish va foydalanish mexanizmlari. M.: Ankil, 2005 Yil. 328 b.
7. Tumusov F. S. mintaqaning investitsiya salohiyati: nazariya, muammolar, amaliyot. M.: Iqtisodiyot, 1999. 272 b.



8. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X, Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. T.: «Moliya». 303 b.
9. "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni (PF-71-son, 01.05.2024-y.) <https://buxgalter.uz/uz/doc?id=751194>.
10. Madрахimova G.R Improving The Use of Investment in Improving The Efficiency of Light Industry Enterprises in Uzbekistan. // International Journal of Research in Management & Business Studies (IJRMBS 2019) ISSN:2348-6503. Volume 6, Issue 2 (April-June 2019). Impact Factor (5) GIF – 0.70. 32-35-p. <http://ijrmbs.com/vol6issue2/madрахimova.pdf>
11. Madрахimova G.R. Mamlakatimiz iqtisodiyotida sanoatning o'rni, ahamiyati va rivojlanish yo'nalishlari. // Biznes-Ekspert. – Toshkent, 2020. 2-son. 104-109-b. (08.00.00 №3).
12. Madрахimova G.R Analysis of the current status of the textile industry in the economy of Uzbekistan. // Economics and Innovative Technologies. Vol. 2020, No. 1, January-February, 1/2020 (08.00.00; №10). 1-9-p. <https://uzjournals.edu.uz/iqtisodiyot/vol2020/i>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100